



O'QITUVCHI VA TALABALAR O'RTASIDA VUJUDGA KELGAN NIZOLARNI ANIQLASHDA MUNOSABAT STRATEGIYALARI

Djumayeva S.A.

PhD, Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti vazifasini bajaruvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6177101>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi:05-fevral 2022
Ma'qullandi:10-fevral 2022
Chop etildi:15-fevral 2022

KALIT SO'ZLAR

ta'lim, tarbiya,
konfliktologiya, nizo,
strategiya, kompromiss,
munosabat, eskalatsiya.

Zamonaviy ta'lim jarayonidagi islohotlarning yangi bosqichida o'qituvchi va uning mahorati masalasiga alohida urg'u berilmoqda. O'qituvchi ta'lim jarayoniga innovatsiyani bevosita joriy etuvchi va innovatsion jarayonni tashkillashtiruvchi sub'ekt sifatida baholanmoqda. Pedagogik jarayondagi innovatsiya esa ta'lim va tarbiyaga oid barcha yangiliklarni amaliylashtirish, shu asosda ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashni taqozo etadi. Mana shunday ta'lim tizimiga oid innovatsion yo'nalishlardan biri – pedagogik nizolar va ularni bartaraf etish omillari hamda strategiyalari amalga oshiriladi.

Pedagogik nizolar – ta'lim-tarbiya jarayoning barcha ishtirokchilari

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'qituvchi ta'lim jarayoniga innovatsiyani bevosita joriy etuvchi va innovatsion jarayonni tashkillashtiruvchi sub'ekt sifatida baholanmoqda. Pedagogik jarayondagi innovatsiya esa ta'lim va tarbiyaga oid barcha yangiliklarni amaliylashtirish, shu asosda ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashni taqozo etadi. Mana shunday ta'lim tizimiga oid innovatsion yo'nalishlardan biri – pedagogik nizolar va ularni bartaraf etish strategiyalari amalda ko'rsatilgan.

(o'qituvchi va o'quvchi, ota-ona va farzand va h.k.) o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, shaxsiy manfaatlar to'qnashuvidir.

Har qanday turdagi nizolar kabi pedagogik nizolar ham o'zaro qarama-qarshiliklarga asoslanadi. O'zaro qarama-qarshiliklar esa muayyan masala yoki vaziyatlar yuzasidan guruhlarining bir-birlarini qo'llab-quvvatlamasliklari tufayli kelib chiqadi.

O'qituvchi va talabalar o'rtasida vujudga keladigan nizolarni uch darajada tahlil qilish lozim. Ya'ni, o'quv-tarbiya jarayonining o'ziga xos ob'ektiv xususiyatlari nuqtai nazaridan; guruhning, talabalar jamoasining, shuningdek, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muayyan



vaziyatlardagi shaxslararo munosabatlar nuqtai nazaridan; nizo ishtirokchilarining yosh, jinsiy hamda shaxsiy-psixologik o'ziga xosliklari nuqtai nazaridan.

Konfliktologiyada o'qituvchining nizoga munosabatiga ko'ra quyidagi strategiyalar alohida ajratib ko'rsatiladi:

1. Nizoli vaziyatni inkor etish, uni bartaraf etish strategiyasi. Mazkur strategiya agar nizoli vaziyat o'z mazmuniga ko'ra juda katta e'tiborni talab qilmaydigan mayda masalalar negizida sodir bo'lgan hamda uning kengayib ketishiga asos bo'lmagan hollarda qo'llaniladigan metodlar majmuasi sanaladi. Bunda o'qituvchi o'z kuchi va energiyasini yanada muhimroq masalalarga yo'naltirishni tanlaydi hamda nizoni inkor etish orqali yechimga olib kelinadi. Ammo ba'zi vaqtlarda nizoni e'tiborga olmaslik, yanada kattaroq ziddiyatli vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Chunki nizoni inkor etish har doim ham ziddiyatni yechimga olib kelishini anglatmaydi. Bunday vaziyatda o'qituvchi ziddiyatli vaziyatga o'z ta'sirini o'tkazishdan mahrum bo'lib qoladi. O'qituvchi ta'sirining yo'qligi uni pedagogik jarayondan chiqarib yuboradi. Nizoli vaziyatga o'qituvchi ta'sirini to'xtatib qo'yadi. Nizo o'qituvchidan tashqarida yashay boshlaydi. Natijada nizoni yechimga olib kelish vaziyati qo'ldan boy berilgan bo'ladi. Shunga ko'ra, o'qituvchining sa'y-harakatlari har doim nizo yechimga yo'naltirilgan bo'lishi darkor.

2. Nizoli vaziyatda g'alabaga erishish strategiyasi. Nizoni yechimga olib kelishda tomonlarning g'alabaga erishish strategiyasi faqat bir tomonning yutug'ini anglatmaydi, balki ziddiyatda ishtirok etayotgan barcha tomonlarning birday yutug'ini anglatadi. Biroq ba'zi vaqtlarda

ko'pchilik o'qituvchilar an'anaviy tarzda aynan o'zlarining haqiqatining yutib chiqishini istagan holda harakat qilishadi. Natijada, umumiy haqiqat emas, balki aynan o'qituvchi haqiqati yutib chiqqan bo'ladi. Ammo mana shunday tarzda erishilgan o'qituvchi haqiqati tomonlar manfaatlariga zid bo'lishi hamda pedagogik jarayon samaradorligiga putur etkazishi mumkin. Bunday qilinganda, pedagogik jarayonining o'qituvchidan tashqari barcha ishtirokchilari tafakkurida adolatsizlik ro'y berganligi, adolatsizlik o'rin tutganligi borasidagi fikr kelib chiqadi va mana shu o'qituvchi tomonidan amalga oshirilgan adolatsizlik ular ongida o'rnashib oladi. Pedagogik jarayon ishtirokchilari o'qituvchi "haqiqatini" qabul qila olmaydi. Ular o'qituvchi haqiqati adolatli ekanligini inkor etadilar. O'qituvchi esa mana shu adolatsizlikni yuzaga chiqargan inson sifatida rol o'ynay boshlaydi. Tabiiy ravishda talabalar oldida o'qituvchi hurmati pasayib boradi hamda talaba adolatsizlikni o'qituvchi qilishi mumkinligiga o'z ko'zi bilan iqror bo'ladi. Shunga ko'ra, o'qituvchi strategiyasi o'z hurmatini betaraflik asosida muntazamliligini ta'minlash va barcha tomonlar manfaatlariga birday munosabat bildirishda namoyon bo'ladi.

3. Nizoli vaziyatda murosaga kelish mahorati va strategiyasi. Pedagogik nizolarni yechimga olib kelishda o'qituvchida quyidagi kompromissga kelish usullari mavjud bo'ladi: tomonlar va ularning xarakter xususiyatlari, ular manfaatlariga moslashishi, ularning manfaatlarini anglashga urinish, ba'zi masalalarda biror tomonga yon berish, murosaga kelish, "status-kvo", ya'ni tomonlar manfaatlarini nizoli vaziyatdan oldingi holatda saqlab qolishga urinish,



nizo yechimida vositachilar yordami va ishtirokidan foydalanish. Moslashish va yon berish jarayonida boshqa tomon manfaatlarining muhimligi va boshqa tomon qarashlarida ikki tomon uchun foydali bo'lgan o'rinlarning mavjudligi tan olinadi. Natijada boshqa tomon fikr va qarashlari qabul qilinadi. Aslida boshqa tomon qarashlari qabul qilingan bo'lsa ham, mana shu qarashni qabul qilgan tomon ham yutuqqa erishadi. Chunki mazkur qarash barcha tomon manfaatlarini ham inobatga oladi va muvaffaqiyat uchun xizmat qiladi. Yon berish boshqalar fikr va qarashlariga e'tibor, ularning tahlil qilishda ochiqlik va samimiylik, o'zga fikrlar orasidan maqbul g'oyalarni topa bilish va ularni hamkorlikda qabul qilish, o'zining neytral va ratsional munosabatini ko'rsata olish kabi amallar orqali o'zini namoyon etadi. Shaxslararo mana shunday maqbul kelishuvga erishish uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi. Biroq o'zga tomon fikr va qarashlarini qabul qilish, ikkinchi tomonning yutqazishi, o'z manfaatlariga zarar etkazishi, birovga bo'ysunish, mulzam bo'lish, yo'qotish sifatida baholansa, bu holatlar nizoning eskalatsiyasi, ya'ni yanada kuchayishiga sabab bo'ladi. Binobarin, o'qituvchi ikki tomonning kelishuvga erishish strategiyasini tuzib, uni amalga oshirishda mana jihatlarning barchasini e'tiborga olishi, ikki tomonning kompromisslar strategiyasidan unumli va ratsional tarzda foydalanilishini ta'minlashi darkor bo'ladi. O'qituvchining o'zi esa nizoli vaziyatda umuman o'zini ustun qo'yish, boshqa tomonni tahqirlash, o'zgani mulzam qilish, psixologik va jismoniy zo'ravonlik o'tkazish, o'z fikrini kuch bilan singdirish, o'zgalarga tazyiq o'tkazish kabi amallardan hech vaqt foydalanmasligi talab etiladi.

Kompromiss tomonlarning u yoki bu darajada manfaatlarining inobatga olinganligini tasdiqlab beradi. Har bir tomon o'z manfaatlaridan eng muhimlari qabul qilinganligi, biroq ba'zi boshqa fikrlar inobatga olinmaganligini angelaydi va shu natijaga rozi bo'ladi. Tomonlar manfaatlaridagi qabul qilingan o'rinlar ahamiyati qabul qilinmagan jihatlardan ustunroq mavqega ega bo'ladi. Shuning uchun sub'ektlar psixologiyasida o'zlari uchun o'zlari qabul qilgan kompromisslar jarayoni e'tiroz uyg'otmaydi va tomonlar mana shu holat va vaziyatga sidqidildan rozilik bildiradilar.

4. Nizoli vaziyatlarda o'zaro hamkorlik munosabatlari strategiyasi. Har qanday nizoda unda ishtirok etayotgan tomonlarni mavjud muammoni hamkorlikda muhokama etish, ziddiyatdan chiqish yo'l, usul va vositalarini taklif etish, kompromisslarga borish, nizoni engib o'tishga ishtiyoq va xohishni tarbiya qilish ziddiyat jarayonida har ikki tomonning yutib chiqishi va "g'alaba-g'alaba" sharoitining amal qilishini ta'minlaydi. Biroq konkret vaziyatda ziddiyatga kirgan tomonlar har doim buni to'g'ri va mutanosib anglayvermaydi. Shuning uchun mana shu vazifani bajarishda o'qituvchining roli juda ahamiyatli sanaladi. Binobarin, har qanday nizoli vaziyatda tomonlar hamkorligini o'rnatish muhimdir. O'qituvchi nizoli vaziyatlarda talabalar, hamkasblar, rahbariyat o'rtasidagi hamkorlikka mas'ul hisoblanadi. Hamkorlikni o'rnatish bilish nizoni bartaraf etish va uning oldini olishda muhim rol o'ynaydi. Nizoli vaziyatdagi hamkorlik birgalikda turli muammolarni muhokama etish va tegishli qarorlar qabul qilishni anglatadi.



Mazkur strategiyani amalga oshirish uchun nizoli vaziyatda ishtirok etayotgan barcha tomonlarning manfaatlari va ehtiyojlarini inobatga olish va o'rganish, ularni amaliy qabul qilish va ta'minlash chora-tadbirlarini ko'rish, ularning qadriyatlar tizimini hurmat qilish, muhokamalarda ob'ektivlikni ta'minlash, muammolarni shaxsdan ayri holda ko'rish taqozo etiladi.

O'qituvchi nizoli vaziyatni yechimga olib kelish jarayonida quyidagi xulq-atvor ko'rinishlarini namoyon qilishi mumkin:

a) konfliktogen (o'z emotsiyalarini tutib tura olmaslik, destruktivlik, talabalarga nisbatan "jazo" choralari ko'rish, talaba harakatlarini faqat qoralash orqali baholash, uni tahqirlash va unga tazyiq o'tkazish). Nizoga nisbatan bunday munosabat tanlanganda ziddiyat

kuchayadi, bu esa o'qituvchining bosh pedagogik vazifalariga zid holat sifatida baholanadi.

b) nizoga tolerant munosabat bildirish (kompromisslarga moyillik ko'rsatish, nizoni kuchaytirib yubormaslikka intilish, talabaga nisbatan bag'rikenglikka intilish).

v) nizoga nisbatan konstruktiv munosabat ko'rsatish (diqqatni muammoga qarata olish, hech kimni ayblamaslik, o'z hissiyotlarini jilovlay olish, nizo yechimini izlab topish va barchaning e'tiborini mana shu maqsadga yo'naltirish). Shunday qilib, pedagogik nizolar har bir o'qituvchi pedagogik faoliyatining uzviy ajralmas qismi va tarkibi bo'lib, o'qituvchi pedagogik nizolar nazariyasi va amaliyoti bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Журавлев В.И. Основы педагогической конфликтологии / Учебник. – М.: Российское педагогическое агентство, 1995. – 184 с.
2. Рыбакова М. М. Конфликт и взаимодействия в педагогическом процессе. – М.: Педагогика, 1991. – 168 с.
3. Каримова В., Бердиев Г. Муроса қилиш одоби ёки конфликтларни бартараф этиш мумкинми? – Т.: 2003. – 44 б.